

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIY OT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:

No 113

2022 yil "29" 08



“AUDIT”
fanining

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohasi:	230 000 – Iqtisod
Ta'lim yo'nalishi:	5230900 -“Buxgalteriya hisobi va audit” (tarmoqlar bo'yicha)

Qarshi-2022 y

Ushbu fan dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta mazsus ta'lim vazirligi Toshkent Moliya institutining 2019 yil 17 avgustdagi № 4-son bilan ro'yxatga olingan fan dasturiga asosan tuzilgan.

Tuzuvchi:



Q. H. Berdiyev - "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida kata o'qituvchisi

Fanning ishchi o'quv dasturi "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasining 2022 yil 24.08 №1-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri



I. f.f.d. (PhD) Alikulov A


Fanning ishchi o'quv dasturi "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayon №1, 24.08 2022 y.) va institut institut Uslubiy Kengashida (bayon №1, 24.08 2022 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:




dots.Sh.Turdiyev

"Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy kengashi raisi:



dots.Qurbonov A

Kafedra mudiri:



I. f.f.d. (PhD) Alikulov A

Kirish.

Ushbu dasturda "Audit" fanining mazmuni, predmeti va metodi, audit mohiyati, uning maqsadi va vazifalari, O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tashkil qilishning huquqiy va tashkiliy asoslari, auditorlik kasbiga malakaviy va axloqiy talablar, auditda muhimlik va auditorlik riski va shu kabi mavzular uzviylik va uzluksizlik nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o'z aksini topgan. "Audit" fanini chuqur o'rganish tegishli sohalar muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari va uning keyingi bosqichlarida ustuvor yo'nalishlarning belgilanishi, ayniqsa ijtimoiy-siyosiy hayotni, jumladan iqtisodiyotni erkinlashtirish, mulkdorlar sinfini tashkil qilishdan kelib chiqqan holda bir qancha sohalar, jumladan buxgalteriya tizimini ham isloh qilishni taqozo etdi.

Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashib borishi, O'zbekiston Respublikasining jaxon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi o'z navbatida mavjud qonunchilik asosini doimiy ravishda takomillashtirib uni xalqaro me'yorlar va standartlarga moslashtirib

"Audit" fani buyicha Respublikamizning bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tishda yangi iqtisodiy munosabatlarni barpo etish zaruriyati tug'iladi. Shu ma'noda auditorlik faoliyati axborotlarning ishonchligini ta'minlashda ahamiyati katta. "Audit" fanini chuqur o'rganish moliya, soliq, bank ishi va boshqa iqtisodiy sohalaridagi muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

"Audit" fani «Moliyaviy hisob», «Boshqaruv hisobi», «Iqtisodiyot», «Moliya», «Moliyaviy menejment», «Statistika» kabi fanlar bilan bog'liq holda o'rganiladi.

"Audit" fani 523.0900- «Buxgalteriya hisobi va audit» ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari uchun mo'ljallangan.

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu fan O'zbekistonda auditorlik faoliyatini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotining zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

"Audit" fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 4-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. "Audit" fani iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini nazariy va amaliy masalalarini o'rganish va Audit faoliyatidagi muamolarning yechimlarini topishda hamda bakalavr ta'limi Audit faoliyati bo'yicha mutaxassislarini shakllanishida katta ahamiyatga ega. Ushbu fanning yutuq va xulosalaridan korxonalarini audit qilishda keng foydalaniladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

"Audit" fanining asosiy maqsadi - talabalarda xo'jalik yurituvchi subektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish, moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosasi hamda hisobotini rasmiylashtirish, auditning professional xizmatlarini ko'rsatishni tashkil qilish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tashkil qilishning huquqiy asoslari va tashkiliy asoslari; auditorlik kasbiga malakaviy va axloqiy talablari; auditda muhimlik tushunchasi va auditorlik riski; auditorlik tekshirishni rejalashtirish; auditorlik tekshirish vaqtida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini o'rganish hamda baholash; auditorlik dalillar; ekspert ishlaridan va boshqa auditorlik tashkiloti ma'lumotlaridan foydalanish; auditorlik tanlash; auditorlik hisoboti va xulosasi; ichki audit asoslari; uzoq muddatli aktivlar auditi; joriy aktivlar auditi; majburiyatlar auditi; xususiy kapital auditi haqida nazariy-amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va ustubiy jihatdan uzviyligi

“Audit” fani umumkasbiy fanlar majmuasiga taaluqli bo'lib, talabalar uni ta'lim yo'nalishlariga qarab VIII semestrda o'rganishadi.

Bu dasturi amalda bajarish uchun talabalar buxgalteriya hisobidan yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishlari lozim.

«Audit» fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanadi. U korxonalarda hisob –kitoblar va moliyaviy hisobot ma'lumotlarining qonuniyligini o'rganish va tekshirishda uz usul-uslubiyatiga ega bo'lish bilan birgalikda quyidagi fanlar bilan bevosita bog'liqligi sababli bu fanlar ham talabalarga chuqur o'rgatiladi: “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Buxgalteriya hisobi nazariyasi”, “Moliyaviy hisob”, “Boshqaruv hisobi”, “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari”, “Iqtisodiy tahlil nazariyasi”, “Moliyaviy va boshqaruv tahlili”, “Moliyaviy hisobot”, “Statistika”, “Soliqlar va soliqqa tortish” va boshqalar.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Auditni o'rganish audit jarayonidagi muammolarini kompleks tizimli yechish uslublarini, auditni nazariy va ustubiy jihatlarini aaliyot bilan bog'lashda uhi ahaiyat kasb etadi. Bundan tashqari tarmoqlarning faoliyatidagi kachiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish imkonini beradi.

Fani o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarining “Audit” fanini o'zlashtirishlari uchun ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va ustubiy qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmua, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlardan foydalaniladi.

Ma'ruzava amaliy mashg'ulot darslarida mos ravishda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan hamda o'quv-uslubiy majmualardan foydalaniladi.

Fan boyicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda chet mamlakatlar, jumladan hamdo'stlik mamlakatlarida yangi chop etilib, “Internet” tizimi orqali tarqatilgan elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlaridan foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruzalarni o'tishda elektron ma'ruzalardan, mavzularga mos multimediali slaydlar va videofilmlardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda elektron mashqlar va masalalar to'plamlaridan, kompyuterlar yordamida fan boyicha kompyuter o'yinlari, test savol-javoblaridan foydalaniladi.

“Audit” fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

Umumiy o'quv soati	238 soat
Shu jumladan:	
Jami auditoriya soatlari	132 soat
Ma'ruza:	66 soat
Amaliy mashg'ulotlar:	66 soat
Mustaqil ta'lim:	106 soat

ASOSIY QISM

Ma'ruza mashg'ulotlari

1-mavzu. Auditorlik tekshiruvda firibgarlikni aniqlash

Firibgarlik tushunchasi. Firibgarlik uchburchagi. Firibgarlik oqibatidagi muhim buzib ko'rsatishning riskini aniqlash va baholash. Moliyaviy hisobotdagi firibgarliklar. Firibgarlikni oldini olish va aniqlash. Firibgarlik aniqlanganida auditorning hatti-harakati. Auditor uchun kelishuvni davom ettirish imkonsizligi. *Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: axborot, ma'ruzasi, prezentatsiya, grafik organayzer texnikalari, blits-so'rov.*

Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,9

2-mavzu. Auditorlik tekshiruv vaqtida ichki nazorat tizimini o'rganish hamda baholash

Tekshiriladigan korxona (mijoz) faoliyatini o'rganish. Buxgalteriya hisobining tashkil etilishini o'rganish. Korxona buxgalteriyasining tashkiliy tuzilmasi, tashkiliy tuzilmada ko'rsatilgan har bir xodimning vazifalari va mas'uliyatlarining bayoni; hisob siklining muhim uchastkalari boyicha hujjatlar aylanish reja-grafigini tekshirish. Korxona hisob siyosatini o'rganish. Ichki nazorat tizimini tashkil etishda qo'yiladigan maqsadlar. Ichki nazorat tizimining mohiyati va uni o'rganishdan maqsad. Ichki nazorat tizimining elementlari. Ichki nazorat tizimini o'rganish va baholashni hujjatlashtirish. Audit strategiyasini ishlab chiqish. Nazorat riskini baholash.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: axborot ma'ruzasi, prezentatsiya, grafik organayzer texnikalari, blits-so'rov.

Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,11

3-mavzu. Auditorlik dalillar

Auditorlik dalillarining mohiyati va uning ishonchligini belgilovchi mezonlar. Auditorlik dalillarini olish amallari. Ekspert ishlaridan dalil sifatida foydalanish. Boshqa auditor ishlaridan foydalanish. Dalillarni auditorlik

tashkilotining ishchi hujjatlarida aks ettirish. *Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: axborot ma'ruzasi, prezentatsiya, grafik organayzer texnikalari, blits-so'rov.*

Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,7,12

4-mavzu. Tahliliy amallar

Tahliliy amallarni qo'llash maqsadlari. Mohiyati bo'yicha tekshirish tahliliy amallari. Tahliliy amallarning turlari. Umumiy xulosani chiqarish jarayonidagi tahliliy amallar. Auditorning tahliliy tadbirlarning bajarilish natijalari bo'yicha faoliyati. *Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: axborot ma'ruzasi, prezentatsiya, grafik organayzer texnikalari, blits-so'rov.*

Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,7,10

5-mavzu. Auditorlik tanlash

Auditorlik tanlash haqida umumiy tushuncha va uning mohiyati. Tanlashni tashkil etish va tanlash hajmi. Hisobot moddalarini testlash uchun tanlab olish. Chetga chiqishlar va buzib ko'rsatishlar xususiyati va sabablari. Tanlash hajmi. Tanlash birligi. Tanlashni belgilash usullari. Stratifikatsiya va qiymat bo'yicha tortilgan tanlash. Statistik va nostatistik tanlash. Atributiv tanlash. Buzib ko'rsatishlarni jamlanmaga tatbiq etish. Tanlashda dasturiy ta'minotni qo'llash. *Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: axborot ma'ruzasi, prezentatsiya, grafik organayzer texnikalari, blits-so'rov.*

Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,7,8

6-mavzu. Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi

Auditorlik tekshiruvlar natijalarini umumlashtirish va baholash. Auditorlik hisoboti va uning tarkibi. Auditorlik xulosasi va uning turlari. Ijroiy fikr. Modifikatsiyalangan fikr. Izohlar bilan fikr bildirilgan auditorlik xulosasi fikr bildirish rad etilgan auditorlik xulosasi tushuntirish qismi kiritilgan izohlar bilan fikr bildirilgan auditorlik xulosasi. Auditorlik xulosasining tarkibi. Auditorlik xulosasining maxsus qismi. Auditorlik xulosasining tushuntirish qismi. Auditorlik xulosasidagi sana va imzolar. Auditorlik xulosasini taqdim etish.

Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,7,9

7-mavzu. Ta'minot jarayoni auditini

Ta'minot jarayoni auditini tashkil qilish. Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblar auditini. Asosiy vositalar kirimiga doir muomalalarni hujjatlashtirish, schyotlarda aks ettirishning to'g'riligini tekshirish. Nomoddiy aktivlar kirimi hisobi to'g'riligini tekshirish. Tovar-moddiy zahiralarni kirimi hisobini tekshirishning xususiyatlari. Tovar-moddiy zahiralarni kirim qilish va ishlab chiqarishga sarflash vaqtida baholashning to'g'riligini tekshirish.

Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,7,11

8-mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni auditini

Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni. Korxona faoliyatida ishlab chiqarish jarayoni auditining maqsadi, vazifalari va axborot manbalari. Korxonada ishlab

chiqarish xarajatlari auditini o'tkazishni rejalashtirish. Korxona faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlari auditini o'tkazish tarfi. Tekshiruv jarayonida olingan ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish xarajatlari auditini natijalarini umumlashtirish. *Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: axborot ma'ruzasi, prezentatsiya, grafik organayzer texnikalari, blits-so'rov.*

Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,7,8

9-mavzu. Sotish va tushum jarayoni auditini

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Mahsulotlarni sotish va moliyaviy natijalarning o'zaro bog'liqligi. Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar auditini. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foydani tekshirish. Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni tekshirish. *Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: axborot ma'ruzasi, prezentatsiya, grafik organayzer texnikalari, blits-so'rov.*

Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,7,12

10-mavzu. Mehnat haqini hisoblash va to'lash jarayoni auditini

Xodimlar bilan hisob-kitoblar auditining meyoriy asoslari. Aktsiyadorlik jamiyatlarida mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar auditining maqsadi, vazifalari va manbalari. Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar auditini rejalashtirish bosqichi. Xodimlar bilan mehnat haqi va boshqa muomalalar bo'yicha hisob-kitoblarni tekshirish. *Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: axborot ma'ruzasi, prezentatsiya, grafik organayzer texnikalari, blits-so'rov.*

Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,7,10

11-mavzu. Xususiy kapitalni shakllantirish va ta'sischi bilan hisoblashlar auditini

Ustav kapitalini tekshirishning maqsad va vazifalari. Ta'sis hujjatlarini tekshirish. Dastlabki hujjatlarini tekshirish. Smetik va analitik hisob registrlarini tekshirish. Qo'shilgan kapitalni tekshirish. Zahira kapitalini tekshirish. Taqsimlanmagan foydani tekshirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: axborot ma'ruzasi, prezentatsiya, grafik organayzer texnikalari, blits-so'rov.

Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,7,12

"Audit" fanidan ma'ruza mashg'ulotining kalendar tematik rejasini

t/r	Ma'ruza mavzulari 6- semestr	soat
	7- semestr	
1	7-mavzu. Auditorlik tekshiruvda firibgarlikni aniqlash	6
2	8-mavzu. Auditorlik tekshiruv vaqtida ichki nazorat tizimini o'rganishhanda baholash	6
2	9-mavzu. Auditorlik dalillar	6
4	10-mavzu. Tahliliy amallar	6
5	11-mavzu. Auditorlik tanlash	6

6	12-mavzu. Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi	6
	7-semestr jami	36
	8- semestr	
7	7-mavzu. Ta'minot jarayoni auditi	6
8	8-mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni auditi	6
9	9-mavzu. Sotish va tushum jarayoni auditi	6
10	10-mavzu. Mehnat haqini hisoblash va to'lash jarayoni auditi	6
11	11-mavzu. Xususiy kapitalni shakllantirish va ta'sislar bilan hisoblashlar auditi	6
	8-semestr jami	30
	Hammachi	66

"Audit" fanidan amaliy mashg'ulotlarning kalendar tematik rejasi

t/r	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari 6- semestr	soat
	7- semestr	
1	1-mavzu. Auditorlik tekshiruvda firibgarlikni aniqlash	6
2	2-mavzu. Auditorlik tekshiruv vaqtida ichki nazorat tizimini o'rganish hamda baholash	6
3	3-mavzu. Auditorlik dalillar	6
4	4-mavzu. Tahliliy amallar	6
5	5-mavzu. Auditorlik tanlash	6
6	6-mavzu. Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi	6
	7-semestr jami	36
	8- semestr	
7	7-mavzu. Ta'minot jarayoni auditi	6
8	8-mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni auditi	6
9	9-mavzu. Sotish va tushum jarayoni auditi	6
10	10-mavzu. Mehnat haqini hisoblash va to'lash jarayoni auditi	6
11	11-mavzu. Xususiy kapitalni shakllantirish va ta'sislar bilan hisoblashlar auditi	6
	8-semestr jami	30
	Hammachi	66

V. Fan bo'yicha kurs ishi

Kurs ishi o'quv rejaiga ko'ra 5230900 - Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishida nazarda tutilgan. "Audit" fani bo'yicha kurs ishi tanlangan mavzu bo'yicha natijalarni umumiy yaxlitlikka ega ilmiy va amaliy fikrlarni aks ettiruvchi loyihaviy ishdur.

Kurs ishi "Audit" fani rivojlanishining zamonaviy darajasiga, iqtisodiyotning rivojlanish tendentsiyalariga doir masalalarini aks ettirishga mos kelishi kerak. Kurs ishi nafaqat nazariy ahamiyati, mavzusining dolzarbligi va erishilgan natijalarning amaliyotga tadbiqi, balki uning uslubiy tayyorgarlik darajasi hamda

rasmiylashtirilishiga qarab baholanadi. Kurs ishini yozishning eng muhim bosqichi - bu qo'yilgan savollarning o'zaro nazariy va amaliy aloqadorligini ta'minlash.

Kurs ishini tarkibiy tuzilishini to'g'ri belgilash talabaga kurs ishini maqsadi va vazifalarini aniq qo'yish hamda ko'zlangan natijaga erishish yo'llarini, shuningdek, kurs ishini tayyorlash bosqichlarini to'g'ri tanlashga imkon yaratadi.

Kurs ishini tarkibiy tuzilishini oqilona va sifatli ishlab chiqilishi talabaga izlanishning oldiga qo'yilgan maqsad hamda natijalarini to'g'ri ifodalash, fikrlarni bayon etish uslublari va kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ajratish imkonini beradi. Kurs ishi talabaning ilmiy jihatdan etukligi hamda «Audit» fani bo'yicha chuqur bilim va amaliy ko'nikmaga egaligini namoyon qilishi zarur. Kurs ishida o'rganiladigan masalalarning nazariy jihatlarini, aniqlangan muammolarini, qo'yilgan ilmiy va amaliy vazifalarni tahlil qilish hamda muammolarni hal etishni ko'zlangan holda bir-biriga mantiqiy mos reja tuziladi va shu asosida yoziladi.

Talaba kurs ishi bo'yicha izlanish natijalarini yoritishda auditni tashkil qilishning o'ziga xosligini hisobga olib, chet davlatlarning tajribalarini o'zimizda o'rtirgan amaliy yutuqlarni umumlashtirgan holda belgilangan muammolarning echimini topish yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqadi va bartaraf qilish usullarini tavsiya etadi.

Kurs ishini himoya qilishga quyidagi umumiy talablar qo'yiladi:

- o'rganilayotgan muammo bo'yicha mavjud iqtisodiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish;
- kurs ishida chizma va jadvallarni muayyan tizimga keltirilgan holda rasmiylashtirish;
- kurs ishi bo'yichato'plangan materiallarni tanqidiy o'rganish;
- taklif va tavsiyalarning asoslab berilishi;
- talaba tomonidan fikring ketma-ketlikda, muayyan izchillikda bayon qilinishi;
- qo'yilgan talablar bo'yicha kurs ishini rasmiylashtirilishi.

Kurs ishlarining namunaviy mavzulari:

1. Auditning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari.
3. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tashkil qilishning huquqiy asoslari.
4. Auditorlik tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari.
5. Auditorlik kasbiga malakaviy talablar va auditorlik faoliyatini litsenziyalash.
6. Auditorlik kasbining axloqiy talablari.
7. Auditorlik faoliyatining tashkiliy asoslari.
8. Ichki va tashqi auditning mohiyati.
9. Ichki auditni tashkil etish asoslari.
10. Auditda muhimlik darajasini aniqlash.
11. Auditorlik riski, uning elementlari va ularni baholash.
12. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning maqsadi va uning bosqichlari.
13. Korxonani auditorlik tekshiruvdan o'tkazish ishchi dasturi.

14. Auditorlik tekshirish vaqtida buxgalteriya hisobi tizimi va ichki nazoratni o'rganish hamda baholash.
15. Auditorlik dalillar va ulami olish usullari.
16. Auditorlik tekshiruvda tahliliy amallarni qo'llash.
17. Auditorlik tekshiruvda ekspert ishlaridan foydalanish.
18. Auditda boshqa auditorlarning ishi natijalaridan foydalanish.
19. Auditorlik tanlash uslubini shakllantirish, tanlash xatarlari va natijalarni baholash.
20. Auditorlik hisoboti va uning tarkibi.
21. Auditorlik xulosasi va uning tarkibi.
22. Asosiy vositalar auditi.
23. Ijara muomalalari auditi.
24. Kapital qo'yilmalar auditi.
25. Nomoddiy aktivlar auditi.
26. Moliyaviy investitsiyalar auditi.
27. Tovar-moddiy zahiralari auditi.
28. Korxona ishlab chiqarish xarajatlari auditi.
29. Mahsulot sotilishi va u bilan bog'liq muomalalar auditi.
30. Kassa va kassa muomalalari auditi.
31. Bankdagi schyotlarga doir muomalalar auditi.
32. Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar auditi.
33. Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar auditi.
34. Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar auditi.
35. Byudjet bilan hisob-kitoblar auditi.
36. Davlat maqsadli fondlariga doir hisob-kitoblar auditi.
37. Bank kreditlari bo'yicha hisob-kitoblar auditi.
38. Korxona xususiy kapitali auditi.
39. Moliyaviy natijalar auditi.
40. Davr xarajatlari auditi.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

- Mustaqil ta'lim mavzulari tegishli kafedra yig'ilishida tasdiqlanadi va fanning ishchi o'quv dasturida keltirib o'tiladi. Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari:
1. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy nazorat tizimida auditning tutgan o'imi.
 2. Auditorlik tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari.
 3. Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari.
 4. Auditor ishi sifatini nazorat qilish.
 5. Auditorlik tekshiruv ishchi dasturi.
 6. Ichki nazorat tizimini o'rganish.
 7. Auditorlik tashkilotining ish hujjatlari.
 8. Boshqa auditorlarning ishi natijalaridan foydalanish.
 9. Auditorlik tekshiruvlar natijalarini umumlashtirish va baholash.
 10. Xo'jalik usuli va pudrat usulida bajarilgan ta'mirlash ishlari auditing xususiyatlari.

11. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash va hisobda aks ettirishning to'g'riligini tekshirish.
12. Moliyaviy investitsiyalarning darqmadligi, olingan daromadlarning to'liq aks ettirilishi va soliqlar tortilishini tekshirish.
13. Tugallanmagan ishlab chiqarishni tekshirish.
14. Tayyor mahsulotlarni jo'natish bo'yicha muomalalar to'g'riligining auditi.
15. Bankdagi maxsus schyotlardagi pul mablag'lari sintetik hisobining to'g'riligi va to'liqligini tekshirish.
16. Ta'sis hujjatlarini tekshirish.
17. Davr xarajatlari tekshirish.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

7- semestr		
1	1-mavzu. Auditorlik tekshiruvda fribgarlikni aniqlash	10
2	2-mavzu. Auditorlik tekshiruv vaqtida ichki nazorat tizimini o'rganishda baholash	10
3	3-mavzu. Auditorlik dalillar	10
4	4-mavzu. Tahliliy amallar	10
5	5-mavzu. Auditorlik tanlash	10
6	6-mavzu. Auditorlik tekshiruvning yakuniy bosqichi	12
7-semestr jami		62
8- semestr		
7	7-mavzu. Ta'minot jarayoni auditi	8
8	8-mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni auditi	8
9	9-mavzu. Sotish va tushum jarayoni auditi	10
10	10-mavzu. Mehnat haqini hisoblash va to'lash jarayoni auditi	10
11	11-mavzu. Xususiy kapitalni shakllantirish va ta'sislar bilan hisoblashlar auditi	8
8-semestr jami		44
Hammachi		

Dasturning informatsion uslubiy ta'minoti

- Mazkur fanni o'qitish jarayonida:
- ta'limning zamonaviy ilg'or interfaol usullaridan, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining prezentatsiya (taqdimot), multimedia;
 - elektron-didaktik texnologiyalardan foydalaniladi.
- Amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, klaster, blits-so'rov, guruh bilan ishlash, insert, taqdimot, keys stadi kabi usul va texnikalardan keng foydalaniladi.
- "Audit" fanining o'imi uning predmeti, maqsad va vazifalari bo'limiga tegishli ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- "Audit" fanini o'qitishda o'zlashtirish darajasini baholashni tashkil etish

usullarini o'rganishda reyting tizimini ko'llash, kichik guruhlarda ishlashda baholash mezonlari, vaqt reglamentlaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Fanni o'qitish jarayonida quyidagi materiallardan foydalaniladi:

- chizma va grafiklar;
- slaydlar;
- mavzular bo'yicha ishlab chiqarilgan tarqatma materiallar;
- mavzularni mustahkamlashga doir test va yozma ish variantlari;
- mavzularga oid uslubiy ko'rsatmalar.

2.3. Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

“Buxgalteriya hisobi va audit” ta'lim yo'nalishlari 3-4kurs talabalari uchun “Audit” fani boyicha talabalar bilimini baholash MEZONI

Talabalarining semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 5 ballik tizimda baholanadi. Talabaning fan boyicha o'zlashtirishi oraliq baholash (OB) va yakuniy baholash (Yab) turlarida baholanadi.

Oraliq baholash (OB) bo'yicha baholash mezonlari

OB semestr davomida talabaning fan ishchi dasturini tegishli tugallangan bo'lim(lar)ini o'zlashtirishini baholash usuli. Bir semestrda OB 2 xil shaklda, ya'ni birinchi OB test o'tkazish, ikkinchi OB yozma ish shaklida o'tkaziladi. Talabaning 2ta OB bo'yicha olgan ballarining o'rtacha arifmetik miqdori sifatida aniqlanadi va yaxlitlanib butun sonlarda belgilanadi.

OB bahosi 5 ballik tizimda baholanadi.

Agar OB yozma ish asosida o'tkazilsa baholash mezonlari quyidagicha bo'ladi:

Yozma ishni o'tkazishda har bir talabaga 4 ta savoldan iborat variantlar beriladi. Variant savollariga mustaqil ish mavzulariga oid savollar ham kiritiladi. “Yozma ish” ni baholashda 1-jadvalda keltirilgan baholash mezonlaridan foydalaniladi.

1-jadval

“Yozma ish”ni baholash mezonlari		
Baholash tartibi	Baholash mezonlari	Baho
Variantda 4 ta savol bo'lib, har bir savol alohida baholanadi	xulosa va qaror qabul qilishi; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	5
	mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	4
	mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	3

dasturni o'zlashtirmaganlik; fanning mohiyatini bilmaslik; aniq tasavvurga ega bo'lmaslik; mustaqil fikrlay olmaslik.	2
---	---

2-OB test shaklida o'tkazilib, bunda test savollari 20 ta savoldan iborat bo'ladi. talabaning o'zlashtirishi foiz hisobida aniqlanadi

Yab bo'yicha baholash mezonlari

Yab semestr yakunida talabaning muayyan fan boyicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishini baholash usuli. U asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan yozma ish yoki test shaklida o'tkaziladi

2-jadval

“Yozma ish”ni baholash mezonlari		
Baholash tartibi	Baholash mezonlari	Ball
Har bir variantda 5 ta savol bo'lib, har bir savol alohida baholanadi	xulosa va qaror qabul qilishi; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	5
	mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	4
	mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	3
	dasturni o'zlashtirmaganlik; fanning mohiyatini bilmaslik; aniq tasavvurga ega bo'lmaslik; mustaqil fikrlay olmaslik.	2

Talabaning fan bo'yicha yakuniy bahosi semestrda belgilangan baholash turlari (OB, Yab) bo'yicha olingan ijobiy ballar (3, 4, 5)ning o'rtacha arifmetik miqdori sifatida aniqlanadi va yaxlitlanib butun sonlarda qaydnoma, sinov daftarchasi va talabalar o'zlashtirishini hisobga olish elektron tizimida shu kunning o'zida (baholash yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, uch kun muddat ichida) qayd etiladi.

1. Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 5 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI
VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot
manbaalari

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 104 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 56 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 48 b.
6. Fayziev Sh.N., Dusmuratov R.D., Karimov A.A., Kuziev I.N., Avlokulov A.Z. Audit. Darslik. - T.: Iqtisod Moliya, 2015y. - 430 b.
7. Fayziev Sh., Karimov A. Audit. Uchebnoe posobie. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2013. - 328 str.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Озеров У.Г., Никонова Т.В. Аудит и контролинг персонала: учебник. 2-е изд. и доп. - М.: "Альфа Пресс", 2010. - 672 с.
2. Подольский В. Аудит. Учебник. - М.: Изд. УУрайт, 2010. - 605 стр. 3. Пугачев В.В., Внутренний аудит и контроль. Учебник. - М.: Дело и Сервис, 20У.-224с.
4. Хайдаров Р., Файзиёв Ш. Внутренний аудит. Учебное пособие. -Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2013. -212 с.
5. Qo'ziyev I.N., Fayziev Sh.N., Avloqulov A.Z., Sherimbetov I.X. Ichki audit. O'quv qo'llanma. - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2015. 198 bet.

Internet saytlari

www.ziynet.uz (Ziynet ta'lim portali);
www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi);
www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali);
www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb sayti);
www.apb.org.uk - (Auditing Practices Board)
www.nao.gov.uk - (UK National Audit Office)
www.iaa.org.uk - (The Institute of Internal Auditors-United Kingdom)
www.iasc.org.uk - (International Accounting Standards Committee)
www.gasp.ru
www.audit.ru
www.bilim.uz